Xalq sözi

Özbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRIŞ VA JAMIYATNI YUKSALTIRIŞ YILI

1991-yil 1-yanvardan çiqa boşlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 28-oktabr, № 226 (9397) Chorshanba

Saytimizga ötish uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

2026-YILGI PREZIDENT OLIMPIADASI START OLDI

Prezident Şavkat Mirziyoyev 27-oktyabr kuni Olimpiya şaharçasida Prezident Olimpiadasining tantanali oçiliş marosimida iştirok etdi.





Stadionda hududiy terma jamoalar, şuningdek, 2026-yilgi Osiyo va Paraosiyo öyinlari ğoliblari saf tortdi.

Davlatimiz rahbari öz nutqida iştirokçilarni ikkinçi bor ötkazilayotgan Prezident Olimpiadasi bilan tabrikladi.

Joriy yilgi bellaşuvlarda 3,5 mingdan ziyod yoş sportçilar olimpiya va paralimpiya yönalişidagi 26 ta sport turi böyiça kuç sinaşadi. Ularga 1,5 ming nafar murabbiy hamrohlik qilmoqda.

Prezidentimiz mamlakatimizda ommaviy sportdan professional sportgaça, iqtidorlarni saralaşdan xalqaro musobaqalarga tayyorlaşgaça bölgan yaxlit tizim yaratilganini ta'kidladi. Ötgan ön yilda özbekistonlik sportçilar yirik xalqaro musobaqalarda 5 ming 518 ta, jumladan, 1 ming 675 ta oltin medalni qölga kiritdi. Bu avvalgi ön yillikka nisbatan uç baravar köp. Medallarning uçdan biri sportçi qizlarimiz hissasiga töğri keladi.

Yaqinda Samarqandda ötkazilgan Butunjahon şaxmat olimpiadasida yigitlarimiz ikkinçi bor ğolib bölgani qayd etildi. Yaponiyadagi XX yozgi Osiyo öyinlarida esa Özbekiston terma jamoasi 21 ta oltin, 25 ta kumuş va 24 ta bronza medal bilan umumjamoa hisobida beşinçi örinni egalladi.

Parasportçilarimizning matonati va mahorati ham yuqori baholandi. Ular Paraosiyo öyinlarida 45 ta oltin, 49 ta kumuş va 51 ta bronza – jami 145 ta medalni qölga kiritib, umumjamoa hisobida uçinçi örinni egalladi.

Davlatimiz rahbari sportçilar, ularning ustoz va murabbiylari hamda farzandlarining orzusini qöllab-quvvatlab kelayotgan ota-onalarga minnatdorlik bildirdi.

Özbekiston yirik xalqaro musobaqalar ötkaziladigan sport markaziga aylanib borayotgani ta'kidlandi. Sönggi tört yilda mamlakatimizda jahon va Osiyo miqyosidagi 20 ga yaqin musobaqalar taşkil etildi. Kelgusi yil sentyabr-oktyabr oylarida Özbekiston Ozarbayjon bilan birgalikda 20 yoşgaça bölgan futbolçilar örtasidagi jahon çempionatiga ilk bor mezbonlik qiladi.

Prezidentimiz yoş sportçilarga murojaat qilib, yuksak natijaga kuçli iroda, intizom va tinimsiz mehnat bilan erişilişini qayd etdi.

– Özingga işon! Öz ustingda işla! Öz yurtingga munosib böl! Bu sözlar har biringizning hayotiy şioringizga aylansin, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Olimpiadasi iştirokçilari uçun yangi imkoniyat va rağbatlar e'lon qilindi. Kelasi yildan ğolib va sovrindorlarning pul mukofotlari 2,5 baravar oşiriladi: birinçi örin uçun 25 million söm, ikkinçi örin uçun 12 million söm, uçinçi örin uçun 6 million söm beriladi.

Musobaqada ğolib bölib, Özbekiston rekordini yangilagan maktab bitiruvçilari oliy ta'lim muassasalarining sport yönalişlariga imtihonsiz, davlat granti asosida qabul qilinadi. Kelgusida sport turlari 35 taga yetkazilib, unda 14 yoşdan 17 yoşgaça bölgan öquvçilar qatnaşadi.

Har yili Olimpiada ğoliblaridan 50 nafari xorijdagi xalqaro öquv-maşğulot yiğinlariga yuboriladi. Kelasi yildan ğoliblarga bir yillik stipendiya tayinlanadi. Öz yönalişida eng yaxşi natijaga erişgan sport maktablari zarur jihozlar bilan ta'minlanadi.

Şuningdek, poytaxtdagi Olimpiya şon-şuhrati muzeyi Olimpiya şaharçasiga köçirilişi ma'lum qilindi. Bu yoş sportçilarga çempionlarimiz tarixi va yutuqlari bilan yaqindan tanişiş imkonini beradi.

Prezidentimiz yoşlarni oçilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanişga, halol bellaşişga, ota-ona va ustozlarini qadrlaşga da'vat etdi.

– Musobaqa maydonida munosib raqib, hayotda esa yaxşi döst böling, – dedi davlatimiz rahbari.

Şundan söng Prezident Şavkat Mirziyoyev 2026-yilgi Prezident Olimpiadasini oçiq deb e'lon qildi. Davlat madhiyasi yangradi.

Marosim konsert dasturi bilan davom etdi. Tadbir yakunida Prezident Olimpiadasining maş'alasi yoqildi.

 Llzbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ŞAVKAT MIRZIYOYEVNING II PREZIDENT OLIMPIADASINING OÇILIŞ MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, aziz vatandoşlar!

Qadrli sportçi öğil-qizlarim!

Hurmatli murabbiylar, sport fidoyilari!

Barçangizni ikkinçi bor ötkazilayotgan Prezident Olimpiadasining oçilişi bilan çin qalbimdan tabriklayman.

Bugun mana şu muhtaşam majmuada közida şijoat, qalbida katta orzular bilan yurtimizning turli hududlaridan kelgan minglab sportçi yoşlarimizni körib turganimdan xursandman.

Har biringiz bu maydonga Öz orzuingiz, Öz maqsadingiz, eng asosiysi, ğalabaga bölgan katta işonçingiz bilan kelgansiz.

Bugun boşlanayotgan bellaşuvlarda 3,5 mingdan ziyod yoşlar olimpiya va paralimpiya yönalişidagi 26 ta sport turi böyiça kuç sinaşadi. Ularga 1,5 ming murabbiy hamrohlik qiladi.

Işonaman, bu yerda bellaşayotgan yoşlar orasidan ham ertaga dunyoni hayratga soladigan çempionlar, rekordçilar, albatta, çiqadi.

Aziz döstlar!

Biz sönggi yillarda ommaviy sportdan – professional sportgaça, iqtidorlarni saralaşdan – xalqaro musobaqalarga tayyorlaşgaça bölgan yaxlit tizim yaratdik.

Bu işlar zamirida farzandlarimizni soğlom, irodali va mustaqil fikrlaydigan inson etib tarbiyalaşga bölgan intilişimiz mujassam.

Bugun yurtimizda yaratilgan imkoniyatlar qanday natija berayotganini xalqaro maydonlardagi ğalabalar yaqqol körsatmoqda.

Ötgan ön yilda sportçilarimiz yirik xalqaro musobaqalarda 5 ming 518 ta medalni qölga kiritdi, şuning 1 ming 675 tasi oltin medaldir.

Bu – avvalgi ön yillikka nisbatan 3 karra köp.

Ayniqsa, bu medallarning uçdan biri sportçi qizlarimiz hissasiga töğri kelayotgani barçamizni quvontiradi.

Yaqinda Samarqandda ötkazilgan Butunjahon şaxmat Olimpiadasida yigitlarimiz ikkinçi bor ğolib bölgani şaxmatimiz tarixida alohida sahifa oçdi.

Yaponiyada ötgan XX yozgi Osiyo öyinlarida esa terma jamoamiz 21 ta oltin, 25 ta kumuş va 24 ta bronza – jami 70 ta medal bilan umumjamoa hisobida 5-örinni egalladi.

Bu musobaqalarda oğir atletikaçimiz Akbar Jörayev 197 kilogrammlik toşni dast kötarib, jahon rekordini yangiladi.

Boksçimiz Abdumalik Halokov, yengil atletikaçimiz Şarifa Davronova ikki karra, badiiy gimnastikaçimiz Taxmina Ikromova esa uç karra çempionlik şohsupasiga kötarildi.

Muzaffar Töraboyev – dzyudoning vatani Yaponiyada mezbonlar vakilini finalda yengib, oltin medal olgani katta mahorat namunasidir.

Ötkir Jörayev – sport gimnastikasining dastakli ot yönalişida Özbekistonga Osiyo öyinlaridagi ilk oltin medalni keltirdi.

Aminman, bunday natijalar yoşlarimizda "uddalaş mumkin bölmagan marraning özi yöq" degan işonçni, albatta, uyğotadi.

Qadrli yurtdoşlar!

Bugun parasportçi öğil-qizlarimizning matonati va jasoratini ham alohida e'tirof etmoqçiman. Ular kuni keça yakunlangan Paraosiyo öyinlarida nimalarga qodir ekanini yana bir bor namoyiş etib, 45 ta oltin, 49 ta kumuş va 51 ta bronza – jami 145 ta medal bilan umumjamoa hisobida 3-örinni egalladi.

Pauerliftingçi qizimiz Röza Qöziyeva oltin medalni qölga kiritiş bilan birga jahon rekordini örnatdi.

Lolaxon Qodirova – suziş bahslarida, Madina Muxtorova va Karomat Omonova – yadro uloqtirişda, Şaxina Yigitaliyeva – nayza uloqtirişda, Navröza Axmatova – disk uloqtirişda Osiyo rekordlarini yangilagani barçamizga ğurur va iftixor bağişladi.

Yegor Bolotov törtta, Xurşid Qodirov uçta oltin medalni qölga kiritgani alohida tahsinga loyiqdir.

Asila Mirzayorova uzunlikka sakraş böyiça Paraosiyo öyinlari rekordini yangilab, ikkinçi marotaba Osiyoda tengsiz ekanini barçaga isbotladi.

Quvonarlisi, Asila Mirzayorova Osiyo paralimpiya qömitasining 2026 – 2030-yillar uçun sportçilar qömitasi a'zosi etib saylandi.

Bu ham özbek sporti xalqaro miqyosda e'tirof etilayotganining amaliy namunasidir.

Musobaqa mezboni Nagoya meri Içiro Xirosava sportçilarimiz haqida fikr bildirib, "Özbeklar nafaqat halol kuraşi va raqibga hurmati, balki maydon taşqarisidagi odobi va namunaviy xulqi bilan ajralib turgani"ni alohida qayd etdi.

Bu yuksak e'tirof – özligimizning yorqin misoli.

Fursatdan foydalanib, barça sportçilarimizga, ularning ustoz va murabbiylariga, farzandining orzusiga işonib, doimo yonida turgan ota-onalarga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Aziz döstlar!

Yangi Özbekiston – dunyoning nufuzli musobaqalari ötkaziladigan xalqaro sport markaziga aylanib bormoqda.

Sönggi tört yilda yurtimizda jahon va Osiyo miqyosidagi 20 ga yaqin yirik musobaqa taşkil etildi.

(Davomi 2-betda).

INSON SALOMATLIGINI ASRAŞ – ISLOHOTLARNING USTUVOR YÖNALIŞI

Prezident Şavkat Mirziyoyev 27-oktyabr kuni Köksaroy qarorgohida tibbiyot va farmatsevtika sohasi xodimlari bilan uçraşuv ötkazdi.

Davlatimiz rahbari yiğilganlarni yaqinlaşib kelayotgan kasb bayrami bilan tabriklab, inson salomatligini asraş yölidagi mehnati uçun minnatdorlik bildirdi.

– Oilasining baxtini köriş, halol mehnat qilib, orzulariga yetiş, umrini mazmunli ötkaziş uçun odamga, avvalo, soğliq kerak. Şu bois inson salomatligini asraşni islohotlarimizning eng muhim yönalişlaridan biri etib belgilaganmiz, – dedi Prezidentimiz.

Sönggi ön yilda 10 million aholiga xizmat körsatadigan yangi poliklinika va şifoxonalar işga tuşirildi, 58 ming şifo örni yaratildi. Zamonaviy muassasalar köpayişi va xususiy sektor rivojlanişi natijasida tibbiy xizmatlar hajmi uç karra oşdi. Ilgari faqat çet elda bajarilgan tuğma yurak nuqsonlarini davolaş, a'zolar transplantatsiyasi, robot jarrohligi va boş miyadagi murakkab amaliyotlar kabi yuzdan ziyod xizmatlar bugun mamlakatimizda körsatilmoqda.

Farmatsevtika mahsulotlariga ehtiyojning 70 foizini içki imkoniyatlar hisobidan qoplaş maqsad qilingan. Sönggi yillarda sohada 1 milliard dollarlik 330 ta yangi farmatsevtika quvvati işga tuşirildi. Hududlarda farmatsevtika erkin iqtisodiy zonalari taşkil etilib, ularda 1 milliard 200 million dollarlik loyihalar amalga oşirilmoqda.

Prezidentimiz bu özgarişlarda 800 mingdan ziyod tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining munosib hissasi borligini ta'kidladi. Yaqinda soha fidoyilarining bir guruhini davlat mukofotlari bilan taqdirlaş töğrisida farmon imzolandi. Uçraşuvda orden va medallar öz egalariga tantanali ravişda topşirildi.

Davlatimiz rahbari inson salomatligini asraş, ilğor ilmiy işlanmalar va davolaş usullarini joriy etişda boşqalarga örnak bölayotgan tibbiyot xodimlari uçun "Ibn Sino" ordenini ta'sis etişni taklif qildi.

Uçraşuvda birlamçi tibbiy yordam sifatini oşiriş masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bu borada 28 ta tumanda sinovdan ötkazilgan yangi tizim doirasida 7 million aholi oilaviy şifokorlarga nomma-nom biriktirildi. Laboratoriyalar işga tuşirildi, şifokor va hamşiralar öqitildi, bemorlarning tibbiy yordam oliş tartibi belgilandi. Kafolatlangan tibbiy xizmatlar töplami doirasida ambulator bemorlarga 69 turdagi dori vositasi bepul berilmoqda. Uşbu model kelasi yildan yana 100 ta tumanda joriy etiladi.

(Davomi 2-betda).

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 28-oktabr

ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ŞAVKAT MIRZIYOYEVNING II PREZIDENT OLIMPIADASINING OÇILIŞ MAROSIMIDAGI NUTQI

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Kelgusi yil sentyabr-oktyabr oylarida Özbekiston Ozarbayjon bilan birga ilk bor 20 yoşgaça bölgan futbolçilar örtasidagi jahon çempionatiga mezbonlik qiladi.

Albatta, bunday musobaqalarni ötkaziş biz uçun katta şaraf, şu bilan birga, ulkan mas'uliyatdir.

Eng muhimi, yoşlarimiz dunyoning eng kuçli sportçilari bilan yonma-yon bellaşiş, öz oldiga yanada yuksak maqsadlar qöyiş imkoniga ega böladi.

Aziz öğil-qizlarim!

Bugun sizlarga qarab, Özbekiston sportining yorqin kelajagini körib turibman.

Albatta, çempionlikka olib boradigan yöl oson emas. Kuçli iroda va temir intizom bilan faqat va faqat oldinga intilgan har bir inson ğalabaga erişadi.

Biz ilgari surayotgan "Öz" ğoyasining asl maqsadi va mazmun-mohiyati ham şu!

Özingga işon!

Öz ustingda işla!

Öz yurtingga munosib böl!

Bu sözlar har biringizning hayotiy şioringizga aylansin!

Şuni unutmanglar, xalqaro maydonda Özbekiston bayroği kötarilib, madhiyamiz yangraganida, butun xalqimiz sizlar bilan ğururlanadi.

Bunday baxtga erişiş har biringizga nasib qilsin!

Biz esa öz oldiga katta maqsad qöygan har bir yoş sportçini qöllab-quvvatlaşga tayyormiz.

Şu maqsadda bugun Prezident Olimpiadasi iştirokçilari uçun yangi imkoniyat va rağbatlarni e'lon qilmoqçiman.

Birinçidan, Prezident Olimpiadasi ğolib va sovrindorlari uçun pul mukofotlarini kelasi yildan 2,5 baravar oşiramiz. Endi birinçi örin sohiblariga 25 million söm, ikkinçi örin uçun 12 million söm, uçinçi örin uçun esa 6 million söm beriladi.

Ikkinçidan, sportdagi yutuqlar ta'lim olişingiz uçun ham yangi imkoniyat oçadi.

Bundan buyon olimpiadada ğolib bölib, Özbekiston rekordini yangilagan maktab bitiruvçilari oliygohlarning sport yönalişlariga imtihonsiz, davlat granti asosida qabul qilinadi.

Uçinçidan, kelgusida Prezident Olimpiadasi dasturidagi sport turlarini 35 taga yetkazamiz.

Yoş toifasini ham kengaytirib, musobaqani 14 yoşdan 17 yoşgaça bölgan öquvçilar örtasida ötkazamiz.

Törtinçidan, iqtidorli yoşlarning xorijda tajriba orttirişini yanada qöllab-quvvatlaymiz.

Har yili Prezident Olimpiadasi ğoliblaridan 50 nafarini xorijda ötkaziladigan xalqaro yiğinlarga yuboramiz.

Beşinçidan, kelasi yildan Prezident Olimpiadasi ğoliblariga bir yillik stipendiya berişni boşlaymiz.

Oltinçidan, çempionlarni tarbiyalayotgan sport maktablarini munosib rağbatlantiramiz.

Öz yönalişida eng yaxşi natijaga erişgan sport maktabi zarur jihozlar bilan ta'minlanadi.

Yana bir yangilik – poytaxtdagi Olimpiya şon-şuhrati muzeyini Olimpiya şaharçasiga köçiramiz. Ana şunda yoş sportçilarimiz har kuni çempionlarimizning tarixini körib, ularning yutuqlaridan ruhlanib, yangi ğalabalarga intilib yaşaydi.

Qadrli farzandlarim!

Bugun sizlar uçun yangi imkoniyatlar oçilmoqda. Ularni tinimsiz izlaniş, qat'iy intizom va yuksak bilim bilan katta natijalarga aylantiring!

Musobaqa maydonida munosib raqib, hayotda esa yaxşi döst böling!

Ota-ona va ustozlaringizni hamişa qadrlang!

Halol bellaşing, dadil oldinga intiling!

Ğalabangiz oilangizga, mahallangizga va butun yurtimizga quvonç olib kelsin!

Barçangizga şu yölda mustahkam soğliq, kuç-quvvat va omad tilayman.

2026-yilgi Prezident Olimpiadasini oçiq deb e'lon qilaman!

Olğa, Yangi Özbekiston!

Olğa, Özbekiston yoşlari!

Olğa, özbek xalqi!

INSON SALOMATLIGINI ASRAŞ – ISLOHOTLARNING USTUVOR YÖNALIŞI

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Kasalliklarning oldini oliş va ularni erta aniqlaş işlari ham kengaytiriladi. Oşqozon, yöğon içak, prostata bezi va öpka saratonini erta aniqlaş işlari Samarqanddan boşlanib, 2028-yildan barça hududlarda yölga qöyiladi. Qandli diabet, sil, yurak-qon tomir kasalliklari, ayollardagi ösmalar va bolalardagi onkogematologik xastaliklarni erta aniqlaş dasturlari davom ettiriladi.

Beş hududda infarkt va insultni erta aniqlaş hamda davolaş dasturi natijasida uşbu kasalliklardan erta ölim beş oyda 15 foizga kamaydi. Kasallik boşlanişidagi "oltin soat"da 855 nafar inson erta ölim va nogironlik asoratlaridan saqlab qolindi.

Kelasi yil dastur bilan barça tuman va şaharlar qamrab olinadi. Aholi uçun bepul beriladigan dori vositalari turi 73 taga, tibbiy tekşiruvlar turi 36 taga yetkaziladi.

Sohada ta'lim, quriliş, sanitariya-gigiyena, bemorlar xavfsizligi va xodimlar madaniyatini qamrab oladigan "Yangi Özbekiston tibbiyot standartlari" joriy etiladi. Birlamçi böğin xodimlari bosqiçma-bosqiç maxsus kiyim-boş bilan bepul ta'minlanadi. Eng yaxşi şifokor va hamşiralarni rağbatlantiriş kengaytirilib, viloyat bosqiçida ğolib bölgan 14 nafar şifokor elektromobil bilan taqdirlanadi. Soğlom turmuş tarzini tarğib qiladigan eng yaxşi önta loyiha muallifiga 200 million sömdan grant beriladi.

Tibbiy xizmat sifati, avvalo, kadrlar tayyorgarligiga boğliqligi qayd etildi.

– Qança zamonaviy klinikalar qurmaylik, eng sönggi uskunalarni olib bermaylik, malakali xodimlarsiz natija bölmaydi, – dedi Prezidentimiz.

Hozir 11 ta davlat oliygohida yiliga 15 ming şifokor tayyorlanmoqda. Kelasi yildan talabalar haftada uç kun bemor bilan işlaşni örganadi, bitiruvçilar esa oxirgi öquv yilini töliq tibbiyot muassasasida amaliyotda ötkazadi. Bakalavriatni bitirgan hamşira va tibbiyot oğasiga 1,5 million söm, magistraturani tugatganlarga 2,5 million söm qöşimça ustama tölanadi. 2027-yildan tor soha mutaxassisliklari böyiça rezidenturada öqiş bepul böladi.

Tibbiyot xodimlarining malakasini oşirişga xususiy sektor ham jalb qilinadi. Birlamçi böğin va tumanlardagi xodimlarning öqiş xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini davlat röyxatidan ötkaziş tizimi kelasi yil 1-iyuldan dastlab ixtiyoriy asosda yölga qöyilib, 2030-yildan majburiy böladi. Röyxatdan ötgan şifokor, farmatsevt va hamşiralarga ustama tölanadi.

Yangi tibbiyot muassasalari aholi soni va hududlarning joylaşuvidan kelib çiqib, master-reja asosida taşkil etiladi. Davlat şifoxonalarida tadbirkorlarga zamonaviy uskunalar örnatiş uçun joy ajratilib, körsatilgan xizmatlarga suğurta tizimi orqali haq tölanadi. Gemodializ, laboratoriya, sterilizatsiya, reabilitatsiya va fizioterapiya xizmatlarini xususiy sektordan xarid qiliş kengaytiriladi.

Kelasi yil har bir hududga kamida 150 million dollar investitsiya va grant jalb qiliş böyiça vazifalar belgilandi.

Genomika, hujayra va biotexnologiyalar rivojlanişi bilan birga tibbiy tadqiqotlarda inson huquqlarini himoya qiliş zarurligi ta'kidlandi.

– Inson hayoti va salomatligi bilan boğliq tadqiqotlarda uning huquqi, roziligi va qadr-qimmati birinçi örinda turişi şart, – dedi Prezidentimiz.

Buning uçun bioetika va biotexnologiya sohalarining huquqiy asoslari mustahkamlanadi. Garvard tibbiyot maktabi bilan hamkorlikda irsiy kasalliklar böyiça mutaxassislar tayyorlanib, genetik tekşiruv joriy etiladi.

Ixtisoslaştirilgan markazlar tajribasini hududlarga yetkaziş maqsadida jarroh, anesteziolog, reanimatolog, assistent va hamşiralardan iborat yaxlit jamoalar joylarga yuboriladi. Hududlardagi tibbiyot guruhlari esa markazlarda uç-tört oylik stajirovkadan ötadi.

Kelasi yildan 26 ta ixtisoslaştirilgan markaz direktori bilan bir yillik kontrakt tuziladi. Ularning faoliyati sohadagi yangiliklar, quyi böğin xodimlari malakasini oşiriş va ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etişga qarab baholanadi. Şifoxona va poliklinikalar işiga aholining özi baho beradigan mexanizm yölga qöyiladi. Şifokor va hamşiralar iş haqini belgilaşda aholining tibbiy xizmatdan qoniqiş darajasi asosiy mezon böladi.

Kelgusi yildan kardiologiya, gepatologiya, oftalmologiya va gematologiya kabi yönalişlarda önta sun'iy intellekt tizimi işga tuşiriladi.

Şifokorlar assotsiatsiyalarining faoliyatini jonlantiriş, ularning rahbarlarini a'zolar tomonidan ikki-uç yilga saylaş tizimiga ötiş zarurligi ham qayd etildi.

Uçraşuvda tibbiyot xodimlarini ijtimoiy qöllab-quvvatlaş çoralari e'lon qilindi. Sohada kamida 15 yil işlagan xodimlarning ipoteka kreditining bir qismini qoplaş uçun 50 milliard söm ajratildi. Kelasi yil şu imkoniyat orqali ming nafar tibbiyot xodimi yangi uyga köçib ötadi. Har yili 500 nafar yoş xodimning ipoteka krediti boşlanğiç badalining 25 foizi qoplanadi. Olis hududlarda işlaydigan şifokorlarning oylik qöşimça ustamasi 4,5 million sömga oşirilib, u yerda iş boşlaganlarga 50 million söm bir martalik rağbat puli beriladi.

Xorijiy klinikalarda tajriba orttirgan vatandoş şifokorlarni mamlakatimizga jalb etiş uçun ham yangi tizim yölga qöyiladi. Ularga 50 million sömgaça oylik ustama tölanadi, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan iş joyi va öz jamoasini şakllantiriş imkoniyati yaratiladi.

Uçraşuvda soha vakillarining taklif va taşabbuslari tinglandi. Mutasaddilarga belgilangan vazifalarni amalga oşiriş va bildirilgan takliflar ustida birgalikda işlaş böyiça topşiriqlar berildi.

– Men bir narsani sörayman: har bir tibbiyot xodimi özига savol bersin – bugun inson salomatligi uçun keçagidan köra köproq nima qila oldim? Agar har birimiz şu savolga javob qidirib işlasak, tibbiyotimizda ham, xalqimizning salomatligida ham katta özgarişlar böladi, – dedi Prezidentimiz yakunda.

Abdulaziz RUSTAMOV,
Marhabo MADAMINOVA,
ÖzA muxbirlari.

UMUMIY MASALALARGA BIRGALIKDA YEÇIM



Markaziy Osiyoda şakllanayotgan yangi siyosiy muhit mintaqaviy hamkorlikni kengaytiriş, siyosiy muloqotni rivojlantiriş va umumiy muammolarga birgalikda yeçim topiş masalasini dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga çiqarmoqda.

Uçraşuv

Keça Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva "Markaziy Osiyo va Ozarbayjon yoş yetakçilari" mintaqaviy dasturi doirasida mamlakatimizda bölib turgan delegatsiyalarning vakillari bilan uçraşdi.

Muloqot çoğida Özbekistonda yoşlarni qöllab-quvvatlaş borasida amalga oşirilayotgan işlar, jumladan, "Yangi Özbekiston yoşlari – 2030" strategiyasi, mahallalarda yoşlar yetakçilari faoliyati hamda Oliy Majlis palatalari huzuridagi Yoşlar parlamentlarining navqiron avlod manfaatlarini ifoda etişdagi örni haqida söz yuritildi.

Şuningdek, mintaqada yoşlar bandligini ta'minlaş, tadbirkorlikni rivojlantiriş, raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt sohalarida hamkorlikni kengaytiriş masalalari muhokama qilindi. Yoşlarning zamonaviy bilim va könikmalarini rivojlantiriş, innovatsion taşabbuslarini qöllab-quvvatlaş hamda raqamli taraqqiyotni jadallaştiriş ustuvor vazifalar sifatida qayd etildi.

Xorijiy davlatlar delegatsiyalari a'zolariga yurtimizda amalga oşirilayotgan konstitutsiyaviy va parlament islohotlari, Senatning vakolatlari hamda qonun ijodkorligi jarayonidagi örni haqida ham axborot berildi.

Uçraşuvda yoş yetakçilar örtasida muntazam muloqotni yölga qöyiş, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlaş va qöşma taşabbuslarni amalga oşiriş mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirişga xizmat qilişi ta'kidlandi.

YOŞLAR MULOQOTINI RIVOJLANTIRIŞ UÇUN MUHIM MAYDON

Oliy Majlis Qonunçilik palatasi Spikerining örinbosari Rahimjon Hakimov Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Ozarbayjon Respublikasidan kelgan yoş siyosatçilar, deputatlar va ekspertlar bilan uçraşdi.

Tadbir

"Yoş yetakçilar: Markaziy Osiyo + Ozarbayjon" mintaqaviy dasturi doirasida yurtimizda bölib turgan mehmonlarga mamlakatimizda Prezident Şavkat Mirziyoyev rahbarligida yoşlarning huquq va manfaatlarini ta'minlaş, salohiyatini röyobga çiqariş hamda jamiyat va davlat boşqaruvidagi iştirokini kengaytiriş borasida amalga oşirilayotgan islohotlar haqida ma'lumot berildi.

Qayd etilganidek, yoşlarning ta'lim olişi, kasb egallaşi, bandligini ta'minlaş va tadbirkorlik taşabbuslarini röyobga çiqarişga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahallalarda yoşlar yetakçilari institutining joriy etilgani esa ularning muammolarini joyida hal qiliş, taşabbuslarini ilgari suriş va amaliy yordam körsatişning samarali mexanizmlaridan biriga aylandi.

Şuningdek, Qonunçilik palatasining faoliyati va yoşlarning qonun ijodkorligidagi iştirokiga alohida töxtalib ötildi. Qonunçilik palatasi huzuridagi Yoşlar parlamenti yigit-qizlarning taşabbuslarini qöllab-quvvatlaş, ularni qonunçilik jarayonlariga jalb qiliş va kelajakdagi siyosiy yetakçilarni şakllantirişda muhim institut sifatida qayd etildi.

Öz navbatida, mehmonlar samimiy qabul va oçiq muloqot uçun minnatdorlik bildirib, mintaqada özaro işonçni mustahkamlaş, döstona aloqalarni rivojlantiriş va yoşlar örtasida barqaror hamkorlikni yölga qöyiş ular uçun muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaşdi.

Uçraşuvda iştirokçilar özlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan fikr almaşib, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlaş, yoş yetakçilar örtasida tajriba almaşiş, hamkorlikni kengaytiriş va qöşma taşabbuslarni amalga oşiriş imkoniyatlarini muhokama qildi.

Uçraşuv taassurotlari va hamkorlik istiqbollari haqida dastur iştirokçilari öz fikr-mulohazalarini bildirdi.

Xayriniso RASULOVA,
Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy taraqqiyot kengaşi kotibiyati milliy maslahatçisi:



– Özbekistonda amalga oşirilayotgan islohotlar kölami va erişilayotgan natijalar bizda katta qiziqiş uyğotmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjonda yoşlar aholining katta qismini taşkil etişini hisobga olsak, zamon bilan hamnafas, strategik fikrlovçi avlodni tarbiyalaş biz uçun juda muhim ahamiyatga ega. Mintaqa davlatlarida hamfikrlarimiz borligi, xalqlarimiz döstligi va umumiy taraqqiyot yölida birgalikda harakat olib borayotganimiz quvonarli. Umidimiz şuki, bu kabi uçraşuvlar doimiy muloqot maydoniga aylanib, butun mintaqa rivojiga xizmat qiladi.

Dinara SADVAKASOVA,
Qozoğiston Xalq Kengaşi kotibiyatining jamoat birlaşmalari bilan hamkorlik sektori mudiri:



– Bugun biz Özbekistonda hamda mamlakat parlamentida yoşlarga alohida e'tibor qaratilayotganiga bevosita guvoh böldik. Bu boradagi tajribani örganiş biz uçun juda qiziqarli. Sönggi ön yilda Özbekistonning turli sohalardagi jadal taraqqiyotini yaqin qöşni davlat sifatida kuzatib kelyapmiz va bundan mamnunmiz. "Yoş yetakçilar" dasturi mintaqada yoşlar muloqotini rivojlantiriş uçun xizmat qiladigan muhim maydon bölişiga işonaman. Bu kabi dasturlar kelajakdagi yetakçilar örtasida xalq diplomatiyasini şakllantiriş, özaro anglaşuv va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlaşga xizmat qiladi.

«Xalq sözi».

ILMIY SALOHIYAT – TURKIY DAVLATLAR HAMKORLIGI ISTIQBOLI

Turkiy davlatlar örtasida ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikni kengaytiriş, mamlakatlarning ilmiy salohiyatini birlaştiriş va qöşma taşabbuslarni amaliy natijalarga aylantiriş tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Forum

Toşkent şahrida bölib ötgan "InnoWeek – 2026" xalqaro innovatsion ğoyalar haftaligi doirasida "Turkiy davlatlar ilm-fan va innovatsiyalar kuni" forumi ötkazilgani ham bunga yorqin misol.

Forumni Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, taşqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qömitasi raisi Alişer A'zamxöjayev kiriş sözi bilan oçar ekan, bugungi global raqobat şaroitida ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar mamlakatlar taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanişini qayd etdi.

Şu bois turkiy davlatlar hukumatlari, universitetlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari örtasida hamkorlikni mustahkamlaş, istiqbolli



loyihalarni qöllab-quvvatlaş hamda yoş olimlar va ixtiroçilar uçun yangi imkoniyatlar yaratiş dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Öz navbatida, uşbu yönalişda parlamentlarning örni alohida ekani ta'kidlandi. Xususan, parlament diplomatiyasi va qonunçilik taşabbuslari orqali hukumatlar örtasidagi hamkorlikni qöllab-quvvatlaş, uning huquqiy asoslarini takomillaştiriş, intellektual mulk huquqlarini himoya qiliş, akademik mobillikni kengaytiriş va innovatsion faoliyatni rağbatlantiriş muhim vazifalar hisoblanadi.

Forumda yoş olimlar va ixtiroçilarning qöşma loyihalarini qöllab-quvvatlaş, ilmiy işlanmalarni amaliyotga joriy etiş hamda tijoratlaştiriş, universitetlar va tadqiqot markazlari örtasidagi aloqalarni rivojlantiriş turkiy davlatlar hamkorligining istiqbolli yönalişlari sifatida qayd etildi.

Boku şahridagi Xalqaro muğom markazida «Özbekiston va Ozarbayjon: muştarak tarixiy meros, islom sivilizatsiyasi va zamonaviy ilmiy hamkorlik» mavzuida xalqaro anjuman bölib ötdi.

Senatorlar – hududlarda

ÖRGANIŞLAR – MUAMMOLARNI BARVAQT ANIQLAŞ OMILI

Oliy Majlis Senati a'zolarining faoliyatida hududlar bilan yaqin hamkorlik qiliş, aholi muammolarini joyida örganiş va fuqarolar murojaatlariga yeçim topiş muhim örin tutadi. Zero, parlament faoliyatining samarasi qabul qilinayotgan qonunlar bilangina emas, balki ularning odamlar hayotida qanday aks etayotgani bilan ham belgilanadi.

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xöjaligi masalalari va ekologiya qömitasi raisi Anvar Töyçiyev boşçiligidagi işçi guruh Jizzax viloyatining Şarof Raşidov, Paxtakor va Arnasoy tumanlarida amalga oşirilayotgan işlar bilan yaqindan tanişmoqda.

Örganişlarda çorvaçilik tarmoğini rivojlantiriş, çorva mollari nasl sifatini yaxşilaş, ozuqa bazasini mustahkamlaş, teri va junni qayta işlaş sanoatini rivojlantiriş, şuningdek, atrof-muhit muhofazasi, çiqindilarni boşqariş tizimini takomillaştiriş, ekologik barqarorlikni ta'minlaş hamda hududlardagi mavjud muammolarni aniqlaş, ularni bartaraf etiş masalalariga e'tibor berildi. Çorvaçilikni rivojlantirişga qaratilgan davlat dasturlari ijrosi, çorva mollari nasli hamda mahsuldorligini yaxşilaş, naslçilik xöjaliklarining moddiy-texnik imkoniyatlari, ozuqa yetiştiriş va zaxiralaş tizimi, tadbirkorlarga yaratilgan şart-şaroitlar tahlil qilinmoqda.

Şu bilan birga, ozuqa ekinlari maydonlaridan samarali foydalaniş, yer va suv resurslarini tejaş, yaylovlar mahsuldorligini oşiriş, çorvaçilik xöjaliklarini zarur ozuqa bilan ta'minlaş masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Teri va junni qayta işlaş yönalişida esa xomaşyoni yiğiş, saqlaş va qayta işlaş, işlab çiqariş quvvatlaridan samarali foydalaniş, eksport hajmini oşiriş hamda tayyor mahsulotlar turini kengaytiriş imkoniyatlari körib çiqilmoqda.

Xususan, Şarof Raşidov tumanidagi Qahramon mahallasi hududida joylaşgan "Çaqmoq" çorvaçilik kompleksida 300 boş çorva molini parvarişlaşga möljallangan zamonaviy kompleks taşkil etilgan. Şuningdek, sut va sut mahsulotlarini qayta işlaş yölga qöyilgan bölib, bu yerda kefir, qaymoq, tvorog kabi mahsulotlar işlab çiqarilmoqda. Tayyor mahsulotlar aholi xonadonlariga yetkazib berilmoqda.

Işçi guruh Uçtepa dahasida faoliyat yuritayotgan "Russ-Sall" MÇJda ham böldi. Korxonada junni qabul qiliş va qayta işlaş, undan kiyim-keçak, kigiz hamda boşqa tayyor mahsulotlar işlab çiqariş yölga qöyilgan. Bugungi kunda korxonada yiliga 200 tonna junni qayta işlaş va eksportga yönaltiriş imkoniyati mavjud. Mahsulotlar Belarus, Rossiya va Qozoğiston bozorlariga eksport qilinyapti. Xususan, Belarus bilan 180 ming dollarlik şartnoma imzolangan. Uşbu korxona tajribasi asosida çorvaçilikda yetiştiriladigan xomaşyoni sanoat usulida qayta işlaş, tayyor mahsulot işlab çiqariş va taşqi bozorlarga çiqiş orqali sohaning iqtisodiy samaradorligini oşiriş imkoniyatlari yölga qöyilgan.

Işçi guruhning navbatdagi manzili – Paxtakor tumanidagi Navbahor mahallasi hududida joylaşgan "Bekzod naslli mollari" fermer xöjaligi böldi.

Bu yerda "Golştin", "Simmental", "Aberdin-angus" va "Gereford" zotlariga mansub 500 boşga yaqin naslli qoramollar parvarişlanib, kuniga 1,5 tonna sut soğib olinmoqda. Çorva mollarini töyimli ozuqa bilan ta'minlaş maqsadida fermer xöjaligida 2-2,5 ming tonna silos zaxirasi şakllantirilgan.

Qömita raisi örinbosari Sayyora Abdikarimova boşçiligidagi işçi guruh esa viloyatda çiqindi poligonlari faoliyatini örgandi.

Işçi guruh a'zolari Jizzax şahridagi sanitar tozalaş xizmatlarini körsatuvçi "Greyenlines" MÇJ faoliyati bilan tanişdi. Mazkur korxona şahardagi 135 mingdan ortiq aholiga xizmat körsatib, kuniga 90 – 100 tonna maişiy çiqindini olib çiqib ketmoqda. Buning uçun 19 ta maxsus texnika, 80 ta çiqindi töplaş şoxobçasi va 250 dan ortiq konteynerlardan foydalanilmoqda.

Şarof Raşidov tumanidagi çiqindi poligoni faoliyati ham işçi guruh nazaridan çetda qolmadi. Umumiy maydoni 26,5 gektar bölgan poligonga Jizzax şahri va tuman hududidan kuniga 336 tonna maişiy çiqindi olib kelinadi. Kelgusida bu yerda çiqindixona gazidan foydalanib, kuniga 300 kVt-soat elektr energiyasi işlab çiqarişga qaratilgan loyihani amalga oşiriş nazarda tutilgan.

Bundan taşqari, ikkilamçi xomaşyoni qayta işlaş bilan şuğullanuvçi "Eko sfera" va "Elita lyuks plast" MÇJ korxonalari faoliyati bilan tanişilib, çiqindilardan turli mahsulotlar işlab çiqariş jarayonlari közdan keçirildi.

Örganiş yakunlari böyiça çiqindilarni boşqariş tizimini takomillaştiriş, poligonlar faoliyati samaradorligini oşiriş va ekologik xavfsizlikni ta'minlaş muhimligi ta'kidlandi.

Işçi guruhning viloyatdagi örganişlari davom etmoqda.

MAHKUMLARNING HUQUQ VA QONUNIY MANFAATLARI QANDAY TA'MINLANMOQDA?

Parlament nazorati doirasida Navoiy viloyatidagi jazoni ijro etiş muassasalarida qonunçilik talablariga rioya etilişi, mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ta'minlanişi, şuningdek, qiynoqqa soliş va boşqa şafqatsiz muomala holatlarining oldini oliş çoralari örganilmoqda.

Anjuman

Navoiy viloyati hokimligida Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qömitasi raisi Qutbiddin Burhonov boşçiligidagi respublika işçi guruhining taşkiliy yiğilişi bölib ötdi.

Unda jazoni ijro etiş muassasalarida mahkumlar uçun yaratilgan şaroitlar va ularning huquqlari ta'minlanişi masalalarini örgandi. Jumladan, mahkumlarning yaqinlari bilan uçraşiş va telefon orqali muloqot qiliş, kitobxonlik va elektron kutubxona imkoniyatlaridan foydalaniş, mehnat qonunçiligiga rioya etilişi, xavfsiz mehnat şaroitlari yaratilganligi hamda tibbiy yordam ta'minlanişi közdan keçirildi. Mahkumlarning kasb-hunar va raqamli ta'lim olişi, yoşlarning ijtimoiy reabilitatsiyasiga qaratilgan "Ikkinçi imkon" milliy loyihasining amalga oşirilişi, xavfsiz internet muhiti, zamonaviy axborot texnologiyalari infratuzilmasini yaratiş masalalari körib çiqildi.

Işçi guruh a'zolariga sohani raqamlaştiriş, qöriqlaş vositalari va signalizatsiya tizimi, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalaniş borasidagi işlar taqdim etildi. Mahkumlarning murojaat qiliş huquqlari doirasida "Ombudsman qutisi"ning holati va daxlsizligi ham örganildi.

Senatorlarning Navoiy viloyatidagi örganişlari davom etmoqda. Uning natijalari asosida mahkumlar huquqlarini ta'minlaş, mavjud muammolarni bartaraf etiş va qonunçilikni takomillaştirişga qaratilgan takliflar işlab çiqilişi nazarda tutilgan.

«Xalq sözi».

Oliy Majlis Qonunçilik palatasida

YURT RAVNAQI, AHOLI FAROVONLIGINING MUSTAHKAM KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunçilik palatasining navbatdagi majlisi bölib ötdi. Unda radioaktiv çiqindilar bilan işlaş yönalişidagi munosabatlarni tartibga soliş, Ma'muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksni tasdiqlaş, tadbirkorlik subyektlarini yanada qöllab-quvvatlaşga qaratilgan qator qonun loyihalari, şuningdek, parlament nazorati faoliyatiga oid masalalar körib çiqildi. Kun tartibidagi uşbu masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalarida, mas'ul qömitalar, işçi guruh yiğilişlarida ekspertlar, tegişli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari iştirokida atrofliça muhokama qilingani qayd etildi.

Sohaga oid huquqiy asos takomillaştirilmoqda

Majlisda dastlab "Radioaktiv çiqindilar töğrisida"gi qonun loyihasi ikkinçi öqişda körib çiqildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning qulay atrof-muhitga bölgan huquqlarini röyobga çiqariş, tabiatni muhofaza qiliş, ekologik xavfsizlikni ta'minlaş böyiça izçil çora-tadbirlar amalga oşirilmoqda.

Uşbu hujjat radioaktiv çiqindilar bilan boğliq işlar böyiça munosabatlarning huquqiy asoslarini qonun darajasida tartibga soliş, aholining hayoti, soğligi va mol-mulkini, şuningdek, atrof-muhitni radioaktiv çiqindilarning ta'siridan himoya qilişning huquqiy asoslarini yanada takomillaştirişga qaratilgan.

Unda radioaktiv çiqindilar bilan boğliq işlarni amalga oşirişning asosiy prinsiplari, bu boradagi davlat organlarining vakolatlari, sohani davlat tomonidan tartibga soliş va nazoratini yuritiş mexanizmlari, ekspluatatsiya qiluvçi taşkilotlarning huquq va majburiyatlari hamda ularning aniq çegarasi belgilanmoqda. Xususan, radioaktiv çiqindilarni töplaş, saralaş, qayta işlaş, zararsizlantiriş, transportda taşiş, saqlaş va kömib taşlaş bilan boğliq munosabatlarni tartibga soluvçi normalar nazarda tutilmoqda. Şuningdek, radioaktiv çiqindilarni davlat tomonidan hisobga oliş, ular ustidan nazorat va monitoring yuritiş, radioaktiv çiqindilar bilan boğliq işlarni amalga oşiriş obyektlarining xavfsizligini ta'minlaşga qaratilgan talablar belgilanmoqda.

Loyihada aholi va atrof-muhit xavfsizligiga erişiş, fuqarolar va jamoat taşkilotlarining sohadagi axborotlarni oliş huquqlarini kafolatlaş, şuningdek, radioaktiv çiqindilar bilan boğliq işlarni amalga oşirişda taşkilotlarning mas'uliyatini kuçaytirişga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan taşqari, radiatsiyaviy va ekologik holat monitoringini olib boriş, muhofaza etiş, konservatsiya, rekultivatsiya va reabilitatsiya qiliş bilan boğliq munosabatlarni tartibga soliş nazarda tutilmoqda.

Bekmirza EŞMURZAYEV,
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qiliş masalalari qömitasi a'zosi:



– Qonun loyihasini ikkinçi öqişga tayyorlaş jarayonida deputatlar, siyosiy partiyalar fraksiyalari, mas'ul vazirlik va idoralar hamda soha mutaxassislari bildirgan taklif va tavsiyalar asosida uning normalari yanada boyitilib, amaldagi qonunçilik va huquqni qöllaş amaliyoti nuqtai nazaridan takomiliga yetkazildi. Mazkur hujjat dolzarb bölib, uning qabul qilinişi radioaktiv çiqindilar bilan boğliq işlarni amalga oşirişda xavfsizlikni ta'minlaş tizimini takomillaştiriş, sohada davlat nazorati samaradorligini oşiriş, aholi salomatligi va atrof-muhitni radioaktiv çiqindilarning zararli ta'siridan işonçli himoyalaşga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborildi.

Ma'muriy sudlarning vakolatlari kengaytirilmoqda

Deputatlar Özbekiston Respublikasining Ma'muriy sud işlarini yuritiş töğrisidagi kodeksini tasdiqlaşga oid qonun loyihasini birinçi öqişda körib çiqdi.

Ta'kidlanganidek, davlat organlari faoliyati ustidan sud nazoratini örnatişda ma'muriy sudlar muhim örin tutib, aholining ularga işonçi yil sayin ortib bormoqda. Şu bilan birga, sud-huquq sohasida amalga oşirilayotgan islohotlar hamda töplangan amaliy tajriba amaldagi kodeksni zamon talablariga moslaştiriş, fuqaro va tadbirkorlar huquqlarini himoya qiliş mexanizmlarini yanada takomillaştiriş zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Loyiha bilan, avvalo, fuqaro va tadbirkorlar uçun sudga murojaat qiliş ança yengillaştirilmoqda. Arizadagi formal kamçiliklar uçun ariza qaytarilmaydi, aksinça, sud arizaçiga kamçiliklarni bartaraf etiş va ariza talabini töğri şakllantirişda kömaklaşadi. Agar ariza yanglişib boşqa hududdagi sudga topşirilsa, sud uni qaytarmasdan, "yagona darça" tamoyili asosida tegişli sudga özi ötkazadi.

Eng muhim yangiliklardan biri – fuqaro va tadbirkorlarning haqligi prezumpsiyasi kengaytirilmoqda. Ya'ni davlat organi qabul qilgan qarori qonuniy va asosli ekanligini, qöllanilgan jarima yoki boşqa çora qilmişga mutanosibligini özi isbotlaşi şart böladi. Sud esa işni faqat rasmiy jihatdan emas, balki qöllangan çora qonunda közlangan maqsadga mos va yetarli ekanligi nuqtai nazaridan ham tekşiradi.

Şu bilan birga, buzilgan huquqni tezkor tiklaş uçun 4 turdagi da'vo instituti joriy etilib, ularni berişning aniq muddatlari belgilanmoqda. Bundan taşqari, ma'muriy organ qarori bilan bir guruh şaxslar huquqlari buzilgan hollarda 20 nafar va undan ortiq şaxslar birgalikda jamoaviy da'vo berişi mumkin böladi. Savdo-sanoat palatasiga esa, garçi u birinçi instansiya sudida iştirok etmagan taqdirda ham, tadbirkor manfaatida sud qarori ustidan yuqori instansiyaga töğridan-töğri şikoyat kiritiş huquqi berilmoqda.

Qonun loyihasida davlat organlarida qonuniylikni ta'minlaş maqsadida sud mansabdor şaxslar faoliyatida korrupsiya alomatlarini aniqlasa, materiallarni vakolatli organlarga yuborişi belgilanmoqda. Sud qarorlari ijrosi uçun mas'uliyat ham kuçaytirilyapti. Mansabdor şaxsga jarima qöllanilganidan keyin ham qaror takroran ijro etilmasa, sudga jinoyat işi qözğatiş uçun prokurorga xabar jönatiş vakolati berilmoqda.

Şuningdek, ma'muriy sudlarning vakolatlari kengaytirilmoqda. Endi fuqaro va tadbirkorlar hokimliklarning normativ-huquqiy hujjatlari ustidan ham ma'muriy sudga şikoyat qilişi mumkin böladi. Bunday şikoyatlar viloyat darajasidagi sudlarda sudyalar hay'ati tomonidan prokuror iştirokida köriladi.

Deputatlar qayd etganidek, mazkur normalar fuqaro va tadbirkorlar huquqlarining samarali sud himoyasini ta'minlaş, ortiqça byurokratiya va ovoragarçiliklarni kamaytiriş, davlat organlari faoliyatida qonuniylikni mustahkamlaş hamda aholining ma'muriy sudlarga bölgan işonçini yanada oşirişga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan bir qator savollar kötarildi. Xususan, fuqarolar va yuridik şaxslarning ma'muriy organlar qarorlari hamda xatti-harakatlarining qonuniyligi va asosliligi ustidan sudga murojaat qiliş huquqini ta'minlaş masalasi diqqat markazida böldi.

Saydullo AZIMOV,
ÖzLiDeP fraksiyasi a'zosi:



– Qonun loyihasida ma'muriy sud işlarini yuritiş tartibiga oid yangiça yondaşuvlar taklif etilmoqda. Jumladan, amaldagi kodeksda nazarda tutilgan ariza (şikoyat) bilan murojaat qiliş tartibi örniga da'vo arizasi institutini joriy etiş taklif qilinmoqda. Qonun loyihasini ikkinçi öqişga tayyorlaş jarayonida har ikki institutni – ariza (şikoyat) va da'vo arizasini kodeksda aks ettiriş masalasini körib çiqişni taklif qilaman.

Qonun loyihasiga mas'ullar bu böyiça atrofliça izoh berdi. Savol-javoblardan söng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinçi öqişda qabul qilindi.

Tadbirkorlar uçun muhim soliq imtiyozlari

Majlisda tadbirkorlik subyektlarini yanada qöllab-quvvatlaşga qaratilgan qonun loyihasi birinçi öqişda körib çiqildi.

Uşbu hujjat tadbirkorlik subyektlarini qöllab-quvvatlaş, bozorda teng şaroitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlaş, soliq imtiyozlaridan samarali foydalaniş hamda aholini ijtimoiy himoya qiliş va daromadlarini oşirişga qaratilgan.

Qonun loyihasi bilan tadbirkorlar uçun belgilangan soliq imtiyozlaridan uzluksiz foydalaniş imkoniyatini ta'minlaş taklif etilmoqda. Şuningdek, soliq qarzi öz vaqtida tölanmagan taqdirda hisoblanadigan penya miqdori uşbu qarz summasidan oşib ketmasligi belgilanmoqda. Soliq tölovçi kameral soliq tekşiruvi natijalari böyiça talab qilingan tuşuntiriş yoki aniqlaştirilgan soliq hisobotini taqdim etsa, uning bank hisobvaraqlari böyiça operatsiyalarini töxtatib turiş çorasini soliq organlari tomonidan avtomatik ravişda bekor qiliş nazarda tutilyapti.

Loyihada farmatsevtika, pillaçilik, töqimaçilik kabi işlab çiqariş tarmoqlari, şuningdek, nodavlat maktabgaça ta'lim, ijtimoiy xizmat körsatiş va boşqa ijtimoiy ahamiyatga ega yönalişlar, investitsiya faoliyatini rağbatlantiriş maqsadida yirik köçmas mulk investitsiya loyihalariga nisbatan hamda atrof-muhit muhofazasi, kökalamzorlaştiriş va ijtimoiy ahamiyatga ega xayriya taşabbuslarini qöllab-quvvatlaşga oid soliq yengilliklari ham belgilanmoqda.

Hujjatda hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirişga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Qoraqalpoğiston Respublikasi va iqtisodiy rivojlaniş darajasi böyiça beşinçi toifaga kiritilgan tumanlarda faoliyat yuritayotgan ayrim tadbirkorlik subyektlari uçun pasaytirilgan soliq stavkalarini qöllaş ham nazarda tutilyapti.

Bundan taşqari, aylanmadan olinadigan soliqni tölaşdan qöşilgan qiymat soliği va foyda soliğini tölaşga ötayotgan tadbirkorlik subyektlarini rağbatlantiriş uçun yengilliklar belgilanmoqda. Bu, öz navbatida, kiçik biznesning faoliyat kölamini kengaytirişi uçun qöşimça imkoniyat yaratadi.

Majlisda qonun loyihasining ayrim normalari qizğin muhokamaga sabab bölib, deputatlar tomonidan aniqlaştiruvçi savollar örtaga taşlandi. Yakunda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinçi öqişda qabul qilindi.

Soğliqni saqlaş vaziri axboroti eşitiladi

Majlisda soğliqni saqlaş vaziri E. Adilovning "Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qiliş borasida amalga oşirilayotgan işlar, mavjud muammolar va ularning yeçimi töğrisida"gi axborotini eşitiş haqidagi masala körib çiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda soğliqni saqlaş tizimini zamon talablari asosida takomillaştiriş, tibbiy xizmatlar sifatini yaxşilaş, tibbiy yordam körsatişda tezkorlik va şaffoflikni ta'minlaş, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etiş, tibbiy xizmatlar körsatiş jarayonlarini raqamlaştiriş borasida keng kölamli işlar amalga oşirilmoqda.

Bugungi kunga qadar soğliqni saqlaş tizimida 20 dan ortiq funksional modul va raqamli xizmatlar joriy etilgan. Natijada 4 mingta davlat tibbiyot taşkiloti, 6 mingta xususiy klinika, 11 mingta dorixona hamda 38 milliondan ziyod fuqarolar raqamli tizimlar bilan qamrab olingan. Şuningdek, 44 milliondan ortiq laboratoriya tahlillari raqamli şaklga ötkazilgan.

Tibbiyot muassasalarining raqamli infratuzilmasini mustahkamlaş maqsadida 96 301 dona kompyuter va 43 520 ta planşet xarid qilingan. Bu tibbiy ma'lumotlarni tezkor qayta işlaş, saqlaş va ulardan samarali foydalaniş imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Soğliqni saqlaş tizimiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etiş borasida ham muayyan natijalarga erişilmoqda.

Sohada amalga oşirilayotgan işlarga qaramay, ayrim tibbiyot muassasalarini zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlaş borasida ba'zi kamçiliklar kuzatilmoqda. Şuningdek, mavjud axborot tizimlari va platformalarni özaro integratsiya qiliş işlari ham töliq yakunlanmagan.

Majlisda şundan kelib çiqib, uşbu masala yuzasidan soğliqni saqlaş vazirining axborotini eşitiş haqida tegişli qaror qabul qilindi.

Hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxşilaş doimiy e'tiborda

Deputatlar Çiqindilarni boşqariş va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantiriş agentligi direktori Ş. Hasanovning "Çiqindilarni boşqariş, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantiriş hamda uşbu sohada körsatiladigan xizmatlar uçun tölov tizimini takomillaştiriş borasida amalga oşirilayotgan işlar töğrisida"gi parlament söroviga javobini körib çiqdi.

Unda keltirilişiça, keyingi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qiliş, çiqindilarni boşqariş, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantiriş borasida keng kölamli işlar amalga oşirilmoqda.

Sanitar tozalaş korxonalarining moddiy-texnika bazasini takomillaştiriş borasidagi sa'y-harakatlar natijasida bugungi kunda ularning tasarrufidagi maxsus texnikalar soni 4 606 taga yetkazilgan. Şuningdek, respublikadagi jami çiqindi yiğiş maydonçalari soni 4 376 taga, konteynerlar esa 39 401 taga yetkazilib, qöşimça 600 ming nafar aholiga xizmat körsatiş imkoniyati yaratilgan.

Parlament söroviga berilgan javobga köra, çiqindidan elektr energiyasi işlab çiqariş böyiça umumiy qiymati 933 mln. AQŞ dollari bölgan 6 ta yirik loyiha amalga oşirilmoqda. Hozirga qadar 461,3 mln. AQŞ dollari özlaştirilgan.

Şuningdek, 9 061 ta fuqaroning özini özi boşqariş organi, 75 569 ta köça, 227 ta çiqindi poligoni, 3 548 ta çiqindi yiğiş maydonçasining geohududi şakllantirilgan. Maxsus çiqindi taşuvçi texnikaning 3 918 tasi GPS-monitoring tizimiga, 1 483 ta çiqindi yiğiş şoxobçasi videokuzatuv tizimiga ulangan. Yangi tartibga muvofiq, 2025-yilning noyabr oyidan boşlab qarzdorligi mavjud abonentlarga "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning "2100" raqam orqali SMS ogohlantiriş xabarnomasini yuboriş yölga qöyilgan.

Odiljon MAMADALIYEV,
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qiliş masalalari qömitasi a'zosi:



– Amalga oşirilayotgan tadbirlar yaxşi, biroq bular Strategiyada belgilangan maqsadlarga erişiş uçun yetarli emas. Şu bois sanitar tozalaş korxonalari tomonidan körsatilmagan xizmatlarga qarzdorlik hisoblaş, SMS ogohlantiriş xabarnomalarini yuborişdagi texnik xatoliklarni töliq bartaraf etiş böyiça işlarni yanada takomillaştiriş, bu borada qat'iy nazorat örnatiş lozim. Şuningdek, agentlik tomonidan sanitar tozalaş korxonalari körsatadigan xizmatlar sifatini oşiriş, çiqindilarni saralaş, qayta işlaş natijasida energiya resurslarini, xomaşyo va materiallarni işlab çiqarişni yölga qöyiş orqali sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantiriş böyiça işlarni yanada jadallaştiriş maqsadga muvofiq.

Majlisda atrof-muhitni muhofaza qiliş, aholining salomatligini asraş, hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxşilaş masalalari deputatlarning doimiy e'tiborida ekanligi ta'kidlanib, kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlaşga kelişib olindi. Çiqindilarni boşqariş va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantiriş agentligi direktorining javobi ma'lumot uçun qabul qilindi.

Qömita raisiga parlament sörovi yuborildi

Majlisda Özbekiston Respublikasi Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi qömitasi raisi A. Urunovga "Ösimliklar karantini sohasini tartibga soliş va karantin tadbirlarini olib boriş, kimyolaştiriş va ösimliklarni himoya qiliş vositalari bilan boğliq işlarni xavfsiz amalga oşiriş töğrisida" Qonunçilik palatasining parlament sörovini yuboriş haqidagi masala körib çiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda aholiga sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilişini ta'minlaş, ekinlarni zararli organizmlar va kasalliklardan himoya qiliş, ösimliklar karantini tizimini takomillaştiriş, qişloq xöjaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini kötariş böyiça keng kölamli islohotlar amalga oşirilmoqda.

Xususan, Prezidentimizning "Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, fitosanitariya va veterinariya sohalarida yagona davlat boşqaruvi va nazorat tizimini joriy etiş çora-tadbirlari töğrisida"gi Farmoni bilan Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi qömitasi faoliyati yölga qöyildi. Şu bilan birga, bugungi kunda qişloq xöjaligida kimyoviy vositalardan foydalaniş kölamining kengayişi ösimliklar karantini obyektlarining mamlakatimiz hududiga kirib kelişi va tarqalişining oldini oliş, pestitsidlar qoldiqlarining oziq-ovqat mahsulotlarida belgilangan me'yorlardan oşib ketişiga yöl qöymaslik hamda eksport qilinayotgan mahsulotlarning xalqaro fitosanitariya talablariga muvofiqligini ta'minlaş borasida tizimli çoralar körişni taqozo etmoqda.

Oybek OTAMURATOV,
Agrar va suv xöjaligi masalalari qömitasi a'zosi:



– Deputatlar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi böyiça qonunçilik hujjatlari ijrosi va hududlarda amalga oşirilayotgan işlar holati örganilganda, bu borada e'tibor qaratilişi lozim bölgan bir qator masalalar aniqlanganini qayd etiş joiz. Jumladan, xavfli karantin obyektlarining respublika hududiga kirib kelişi va tarqalişining oldini oliş, ularni öz vaqtida aniqlaş hamda çegara maskanlari, xalqaro aeroportlar, temir yöl va avtomobil transporti orqali olib kirilayotgan ösimlik mahsulotlari ustidan samarali fitosanitariya nazoratini ta'minlaş muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda zamonaviy diagnostika usullaridan foydalaniş, hududlar kesimida xavf tahlilini yuritişga qaratilgan profilaktik tadbirlarning natijadorligini oşiriş lozim.

Majlisda yuqoridagilardan kelib çiqib, bu böyiça amalga oşirilayotgan işlar yuzasidan asoslantirilgan tuşuntiriş beriş haqida Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi qömitasi raisiga parlament sörovi yuborildi.

«Xalq sözi».

Samarqand viloyatining Urgut, Kattaqörğon va Pastdarğom tumanlarida 2030-yilgaça jami 1 ming 500 ta yangi şifo örni yaratiş nazarda tutilmoqda.

Xalq sözi
www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz
2026-yil 28-oktabr

MILLIY ENERGETIKA BARQARORLIGI

GEOLOGIYA, BURĞILAŞ VA SANOAT ZANJIRIDA YANGI DAVR NAFASI

Energetika mustaqilligi – har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va suveren taraqqiyotining mustahkam tamal toşi. Sönggi yillarda mamlakatimizda şaxsan davlat rahbarining nazorati ostida neft va gaz sohasini zamon talablari asosida tubdan isloh qiliş, eskirgan usullardan voz keçib, eng ilğor innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarga tayaniş borasida qat'iy qadamlar taşlanmoqda. Yil boşidan "Özbekneftgaz" AJ tizimida keçayotgan keng kölamli yangilanişlar hamda 9 oylik rekord moliyaviy-iqtisodiy natijalar yurtimizda uglevodorod qazib çiqariş hamda qayta işlaş yönalişida yangi bir uyğoniş davri boşlanganidan dalolat bermoqda.

Modernizatsiya va eng ilğor texnologiyalar

"Tadqiqot çuqurligi 4 500 metrdan 8 000 metrgaça kengaymoqda. Bu ilgari tasavvur ham qilib bölmagan yangi geologik qatlamlarni kaşf etiş demakdir".

"Özbekneftgaz" AJ mamlakatning uglevodorod xomaşyo bazasini mustahkamlaş maqsadida geologiya-qidiruv işlarini kengaytirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, xalqaro hamkorlik, ilmiy yondaşuv va mutaxassislar malakasini oşiriş bu jarayonning asosiy yönalişlariga aylangan.

Ayni paytda Prezidentimiz qarorlari ijrosi doirasida 42 ta investitsiya blokida istiqbolli tuzilmalarni aniqlaş, mavjud konlarning çuqur geologik tuzilişini örganiş va yangi konlarni izlab topiş böyiça kompleks işlar olib borilmoqda. Xitoyning "BGP" kompaniyasi iştirokida "Tagman", "Kogon" va "Şaxpaxti" loyihalarida "3D" seysmik qidiruv işlari jadal davom etmoqda.

Ustyurt hududidagi izlanişlar AQŞning "Sçlumberger" kompaniyasi bilan birgalikda rejalaştirilmoqda. Bu hamkorlik "Möynoq", "Qiziljar", "Ğarbiy Quyi Surgil" va "Şağirliq-quyi yura" maydonlarida sanoat ahamiyatiga ega gaz va kondensat oqimlarini olişda natija berdi. Kon zaxiralari "Degolyer Maknauton" kompaniyasi tomonidan jahon standartlari asosida baholanmoqda.

Seysmik tadqiqotlar hajmi 2025-yildagiga nisbatan beş baravar oşirildi. Joriy yil yakuniga qadar 12 ming kv. km. maydonda "3D" seysmik tadqiqot ötkaziş rejalaştirilgan. Hozirgaça 18 ta yangi maydonda çuqur izlov-burğilaş işlari boşlandi, 174,6 ming pogon metr burğilaş bajarildi, 7700 kv. km. maydonda "3D" seysmik qidiruv ötkazildi va 27 ta quduq qurilişi yakunlandi. Izlanişlar natijasida 5 ta yangi uglevodorod koni oçildi.

"Özbekgeofizika" AJning "Özbekneftgaz" AJ tarkibiga birlaştirilişi sohada mutlaqo yangi, yaxlit boşqaruv zanjirini vujudga keltirdi. Bu tarixiy qaror geologiya va qazib çiqariş örtasidagi uzluksiz boğliqlikni ta'minlab, tadqiqotlardan tortib to quduqlarni qazişgaça bölgan vaqt va moliyaviy resurslarni bir neça barobar tejaş imkonini bermoqda.

Milliy burğilaş salohiyatida tarixiy yuksaliş

"9 000 metrgaça çuqurlikda işlay oladigan 21 ta "ZJ-70" va "ZJ-90" dastgohlari milliy burğilaş sanoatimiz salohiyatini jahon darajasiga kötaradi".

Neft va gaz sanoatida qazib olişning barqarorligi tabiiy omillar ta'siridagi pasayiş sur'atlaridan sezilarli ilgarilab ketişni talab qiladi. Buning uçun şunçaki burğilaş emas, balki murakkab geologik şaroitlarda yuqori bosim va haroratga bardoş bera oladigan ilğor texnika, yuksak malakali muhandislar jamoasi kerak.



Eng muhim yangilik: kompaniya uçun 9 ming metrgaça çuqurlikda erkin işlay oladigan, töliq raqamli boşqaruv tizimi bilan jihozlangan "ZJ-70" va "ZJ-90" rusumli 21 ta zamonaviy burğilaş dastgohi xarid qilinmoqda. Ularning yurtimizga keltirilişi joriy oydan boşlanadi. Bu yangi avlod qurilmalari yuqori termobarik şaroitlarda mutlaqo xavfsiz, avtomatlaştirilgan va yuqori tezlikda işlaşi bilan alohida ajralib turadi.

Kompaniya işni faqat dastgohlar bilan çeklab qöymay, töliq texnologik siklni şakllantirmoqda: yuqori bosimli sementlaş flotlari, azot va kompressor agregatlari, quduqlarni sinaş va özlaştiriş vositalari bosqiçma-bosqiç xarid qilinayotir. Bundan taşqari, burğilaş eritmalari, karotaj va dolotolar böyiça jahonning yetakçi xalqaro servis gigantlari bilan hamkorlik örnatildi. Bu esa quduqlar qurilişi muddatini ikki barobargaça qisqartirib, sanoat va sifat samaradorligini keskin oşiradi.

5 ta yangi kon va 80 ta quduq

"Töqqiz oyda 5 ta yangi gaz koni oçildi, 6 ming metr va undan çuqur qatlamlarda 80 ta quduq burğilandi. Sur'at yanada oşirilib, yilning törtinçi çoragida yana qöşimça 40 ta quduq qaziş va yangi konlar topiş közda tutilgan".

Yil boşidan buyon 80 ta quduq burğilanib, "Qiziljar", "Şağirliq", "Telegri", "Gulşanboğ" va "Kaprin" kabi beşta yangi gaz koni oçildi. 9 oyda qariyb 17 mlrd. kubometr gaz qazib çiqarildi. Bu körsatkiç yil yakuniga qadar 22,8 mlrd. kubometrga yetkaziladi. Biroq qazib oliş hajmini barqaror saqlaş, tabiiy pasayişning oldini oliş va işlab çiqarişni köpaytirişda yangi quduqlarni işga tuşiriş bilan bir qatorda, avval faoliyati töxtatilgan, ya'ni konservatsiya va likvidatsiya qilingan quduqlarni zamonaviy usullar asosida qayta tahlil etiş va ta'mirlaş ham ijobiy samara bermoqda.

Uşbu ta'mirlaş işlarining eng salmoqli qismi 35 ta quduqda amalga oşirilgan mukammal ta'mirlaş tadbirlariga töğri keladi. Jumladan, yonlama özanni burğilaş, istiqbolli qatlamlarga ötiş, faoliyati töxtatilgan quduqlarni qayta işga kiritiş va quduq tubini çuqurlaştiriş natijasida qöşimça 1,6 mln. kub metr kunlik gaz qazib çiqarişga erişildi.

Quduqlarni ta'mirlaş orqali erişilgan uşbu natijalarni yanada mustahkamlaş va konlarda tabiiy gaz qazib oliş barqarorligini ta'minlaş maqsadida umumiy qiymati 78,5 mln. dollar bölgan 35 ta kiçik kompressor xarid qilinmoqda.

Kelgusi yilning texnologik ufqlari

"Töqqiz oyda 41,8 trillion sömlik sanoat mahsuloti. Kelgusida esa LAB, parafin va sintetik moylar töliq özimizda işlab çiqariladi".

Bugungi zamonaviy neft-gaz sanoati xomaşyoni şunçaki qazib oliş bilan çeklanmaydi. Asosiy qiymat – uni çuqur qayta işlaş va yuqori texnologik mahsulotlarga aylantirişda. "Özbekneftgaz" AJ tomonidan joriy yilning töqqiz oyida jami 41,8 trln. sömlik sanoat mahsuloti işlab çiqarildi. Reja 105,7 foizga uddalanib,ösiş sur'ati 105,9 foizni taşkil etdi.

Raqamlarga murojaat qiladigan bölsak, 9 oy davomida 773,5 ming tonna avtobenzin, 759,7 ming tonna dizel yonilğisi, 210,6 ming tonna sifatli aviakerosin işlab çiqarilib, içki bozor va strategik sohalar uzluksiz ta'minlandi. Şuningdek, aholi va sanoat uçun 452,7 ming tonna suyultirilgan gaz, 135,1 ming tonna oltingugurt hamda 101,3 ming tonna yuqori talabga ega polietilen mahsulotlari işlab çiqarildi.

Jamiyatning istiqbolli rivojlaniş strategiyasida qöşilgan qiymat zanjirini yanada uzaytiriş közda tutilgan. Xususan, kelajakda respublikamizda ilk bor sintetik moy, çiziqli alkilbenzol (LAB) va tozalangan parafin işlab çiqariş yölga qöyiladi.

2,6 trillion sömlik dividend va 736,7 million dollarlik eksport zafari

"2,6 trillion sömlik dividend va 1,9 trillion sömlik tejamkorlik. Eksport rejasi 151 foizga bajarilib, byudjetga 6,9 trln. söm tölandi".

Işlab çiqariş va qazib oliş körsatkiçlari moliyaviy barqarorlik va puxta hisob-kitob bilan mustahkamlanmasa, barqaror rivojlaniş haqida söz bölişi mumkin emas. "Özbekneftgaz" AJning joriy 9 oylik iqtisodiy körsatkiçlari tizimda har bir söm mablağdan oqilona va manfaatli foydalanilayotganini körsatdi.

Hisobot davrida jamiyat uluşi mavjud korxonalar faoliyatidan tarixda ilk bor 2,6 trln. sömlik dividend hisoblandi. Tizim taşkilotlarini töğri işlatiş natijasida ular daromadi köpaydi, jamiyat ham dividend tuşumlariga ega böldi. Bu yirik sarmoyalarning öz vaqtida real daromad keltira boşlaganidan dalolat, aslida.

Eksport böyiça ham salmoqli natija qayd etildi: 9 oyda xorijga mahsulot yetkazib beriş 736,7 mln. dollarga çiqib, reja 151 foizga uddalandi. Özlaştirilgan investitsiyalar hajmi esa 790 mln. dollarni taşkil qilib, 100,1 foizlik körsatkiçga erişildi.

Mahalliylaştiriş dasturi doirasida 17,3 trln. sömlik mahsulot işlab çiqarilib, belgilangan reja 139,4 foizga bajarildi.

Navbatdagi maqsad – davlat kafolatidagi 1,1 mlrd. dollarlik kreditlarni bozorning maqbul şartlarida qayta moliyalaştiriş. 260 mln. dollarlik kredit stavkasi yillik suzuvçi 5 foizdan qat'iy 3,75 foizga, "Uzbekistan GTL"ning 840 mln. dollarlik qarzi esa örtaça 7,7 foizdan 3,8 foizga tuşirilişi kutilmoqda. Bu 1,1 mlrd. dollargaça davlat kafolatini bekor qiliş, foiz xavflarini kamaytiriş va jami 65 mln. dollar iqtisodiy samara oliş imkonini beradi.

Eng muhimi, "Özbekneftgaz" AJ yurtimiz ğaznasining asosiy tayançlaridan biri sifatida Davlat byudjetiga 6,9 trillion söm soliq va majburiy tölovlarni öz vaqtida tölab berdi.

Neft bazalari tarixida yangi sahifa

"Mavsumda içki bozor barqarorligi uçun benzin zaxirasi 2,5 barobar köp hajmda şakllantirildi. Neft bazalari esa tarixda ilk bor sof daromad keltira boşladi".

Avvalgi yillar davomida neft bazalari tizimida yöqotişlar, talon-torojlik va surunkali moliyaviy zararlar eng oğriqli muammolardan biri bölib kelgani heç kimga sir emas. Bugun esa qat'iy nazorat, raqamlaştiriş va infratuzilmani şaffof boşqariş tufayli tarixda ilk bor neftbazalar ijobiy moliyaviy natijalarga erişib, daromad bera boşladi.

Ayniqsa, kuz-qiş mavsumiga tayyorgarlik jarayonida içki bozorni sifatli va arzon yonilğı bilan barqaror ta'minlaş böyiça zarur ehtiyot çoralari körildi. Natijada neftbazalarda benzin zaxirasi ötgan yilning şu davridagiga nisbatan 2,5 barobar köp hajmda jamğarildi. Bu aholimiz va iqtisodiyot tarmoqlarini qişning sovuq kunlarida heç qanday uzilişlarsiz yonilğı va yoqilğı bilan kafolatli ta'minlaş, demakdir.

Neft bazalarining moliyaviy barqarorligi va aholiga yonilğı yetkazib beriş infratuzilmasini yanada kengaytiriş, avtomatlaştirilgan hisobga oliş tizimlarini joriy etiş orqali sohaning investitsiyaviy jozibadorligi ham ortib bormoqda.

Import örnini bosadigan sifat

"Buxoro neftni qayta işlaş zavodi modernizatsiyasi "Yevro-5" talablariga mos benzin işlab çiqarişni yölga qöyib, import prisadkalariga qaramlikni kamaytiradi".

Içki bozorni yonilğı bilan barqaror ta'minlaşda hajmning özi kifoya emas – mahsulot sifati va tannarxi ham hal qiluvçi ahamiyatga ega. Şu ma'noda, Buxoro neftni qayta işlaş zavodini modernizatsiyalaş loyihasi tarmoqdagi muhim burilişlardan biri bölişi kutilmoqda.

Loyihadan közlangan asosiy maqsad – zavodning texnologik salohiyatini kengaytiriş, "Yevro-5" ekologik standartiga mos benzin işlab çiqarişni yölga qöyiş va import qilinadigan oktan oşiruvçi qöşimçalarga qaramlikni kamaytiriş.

Modernizatsiya ana şu xarajatlarni import hisobiga emas, zamonaviy texnologiyalar orqali qisqartiriş imkonini beradi. Naftani gidrotozalaş jarayoni yonilği tarkibidagi oltingugurt va boşqa zararli birikmalarni kamaytirsa, izomerlaş texnologiyasi benzinning oktan sonini oşiradi.

«AI-95» işlab çiqarişda keskin ösiş

"AI-95" işlab çiqariş quvvati yiliga 440 ming tonnagaça oşadi, import xarajatlaridan esa har yili qariyb 100 million AQŞ dollari tejaladi".

Modernizatsiya doirasida zavodda "Yevro-5" talablariga javob beradigan "AI-92" va "AI-95" benzinlarini yiliga kamida 1 million tonna hajmda işlab çiqariş möljallangan.

Eng e'tiborli jihat – "AI-95" rusumli benzin işlab çiqariş quvvati hozirgi 5 – 10 ming tonnadan yiliga 440 ming tonnagaça oşiriladi. Bu mahalliy bozorda yuqori oktanli benzin taklifini bir neça karra kengaytirişga yöl oçadi.

Inson qadri – boş mezon

"Çöl bağridagi işçilarga bepul ovqat, zamonaviy yotoqxona va sifatli tez tibbiy yordam ta'minlangan. Inson qadri mehnat maydonida öz isbotini topmoqda".

Har qanday yutuq, oçilgan har bir yangi kon va qazib olingan har bir kubometr gaz zamirida konçilar, muhandislar va daladagi oddiy işçilarning maşaqqatli mehnati yotibdi.

Joriy yilda xodimlarga munosib yaşaş va dam oliş şaroitlarini yaratiş maqsadida barça neft va gaz qazib çiqariş boşqarmalari tasarrufidagi vagon-uylar va yotoqxonalarni töliq kapital ta'mirlaş, zamonaviy isitiş va sovitiş tizimlari bilan ta'minlaş reja qilingan. Daladagi har bir yotoq joyining qulay va sanitariya talablariga moslaştirilişi közda tutilgan. Hisobot davrida Ustyurt gaz qazib çiqariş boşqarmasida 160 örinli, Şörtan neft va gaz qazib çiqariş boşqarmasida esa 130 örinli zamonaviy yotoqxonalar qurilib, foydalanişga topşirildi.

"Özbekgeofizika"ning yangilangan salohiyati, AQŞning ilğor kompaniyalari bilan hamkorlik, "UNG Burğilaş" milliy kompaniyasining 9 ming metrlik çuqurliklarni zabt etişga qaratilgan ambitsiyalari yurtimizning energetika mustaqilligini uzoq yillar davomida barqaror ta'minlaşga xizmat qiladi. Yer qa'ridan topilayotgan har bir yangi kon va işlab çiqarilayotgan milliy mahsulot Vatanimiz qudrati va xalqimiz farovonligining mustahkam poydevori bölib qolaveradi.

Suhrob HAMROYEV,
«Özbekneftgaz» AJ boşqaruvi raisining birinçi örinbosari.

Bunyodkorlik

YAŞILLIK VA SAYYOHLIK UYĞUNLAŞGAN MASKAN

Özbekiston tumanining "Yangihayot" mahalla fuqarolar yiğini hududidagi 10 gektar maydonda zamonaviy turizm majmuasi va boğ bunyod etilmoqda. Loyiha doirasida umumxalq bayramlari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar ötkaziladigan oçiq amfiteatr qurilişiga kirişildi. Boğ örtasida musiqali favvora ajib mikroiqlim yaratadi.

Yangi boğ 7/24 tartibida işlaşi uçun 200 dan ortiq yoritiş çiroqlari örnatiladi. Ayni paytda hududda suğoriş tizimi yaratilib, piyodalar yölaklari, turli xizmat körsatiş va madaniy dam oliş maskanlari, avtomobillar töxtaş joylari taşkil qilinyapti.



– Mahallamizga yangi va zamonaviy qiyofa bağişlaş uçun tiklanayotgan uşbu maskanni zarur infratuzilma bilan ta'minlaş, obodonlaştiriş va kökalamzorlaştiriş işlari izçil davom etmoqda, – deydi "Yangihayot" MFY raisi Nurmatjon Turdiyev. – Maqsad mahallamizda aholi va sayyohlar mazmunli hordiq çiqarişi uçun qulay şaroit yaratiş, hududni sayyohlik maskaniga aylantiriş. Işonçim komil, yaqin istiqbolda xizmat körsatiş sohasi mahallaning asosiy rivojlaniş drayverlaridan biri böladi.

Aytiş joizki, bugungi kunda mazkur mahalladagi 580 ta xonadonda 3 500 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi.

Botir MADIYOROV
(«Xalq sözi»).

REKLAMA

«Şamsuddinxon Boboxonov NMIU» MÇJ naşriyoti

Özbekiston musulmonlari idorasining davriy naşrlari – «Hidoyat» va «Möminalar» jurnallariga işlatiladigan qoğoz mahsulotini arzon, sifatli, belgilangan formatda bepul saqlaş va kerakli vaqtda bepul yetkazib beriş imkoniyatiga ega bölgan yuridik şaxslarni tender (tanlov) ötkaziş orqali aniqlaş uçun hamkorlikka taklif etadi.
Manzil: Toşkent şahri, Olmazor tumani, Zarqaynar 18-berk köça, 47-«A» uy.

Qoğoz mahsuloti formati:

1. Mellangan yaltiroqsiz (mat.) 90 gr/m^2, 60*84 sm. list şaklida, 500 donadan zavod qadoğida, Xitoyning "HI-KOTE" firmasining "HIGH PREMIUM COATED" qoğoz turi – 120 000 kg.

2. Mellangan yaltiroq (glyans.) 130 gr/m^2, 60*84 sm. list şaklida, 250 donadan zavod qadoğida, Xitoyning "HI-KOTE" firmasining "HIGH PREMIUM COATED" qoğoz turi – 20 000 kg.

Tender iştirokçilaridan talab qilinadigan hujjatlar:

- qatnaşçilarning taklif xati;
- ta'sis hujjatlari (guvohnoma, ustav, ta'sis şartnomasi va boşqa hujjatlar);
- oxirgi uç yillik faoliyati haqida ma'lumotnoma va moliyaviy hisoboti;
- moliyaviy holati haqida bankdan ma'lumotnoma;
- moddiy-texnika bazasi töğrisidagi ma'lumotnoma (qoğozni saqlaş bazasi kadastr hujjatlari bilan, avtotexnika hujjatlari, agar ijara asosida foydalanayotgan bölsa, ijara şartnomasi nusxasi);
- tender takliflari faqat muhrlangan ikki qavatli xat jildda qabul qilinadi;
- taşqi xat jildda tender qatnaşçisining taklif xati, ta'sis hujjatlari, oxirgi uç yillik faoliyati haqida ma'lumotnoma va moliyaviy hisoboti, moliyaviy holati haqida bankdan ma'lumotnoma va işçi xodimlarning tasdiqlangan YaMMT ma'lumotlari, içki xat jildda moddiy-texnika bazasi töğrisida ma'lumotlar va tegişlilik hujjatlari böladi.

Zarurat tuğilganda qatnaşçilardan qöşimça hujjatlar ham talab etilişi mumkin. Tender hujjatlari tender komissiyasiga kuzatuv xati orqali 2026-yil 20-noyabr kuni soat 18:00 gaça qabul qilinadi.

Murojaat uçun telefonlar:
71-227-34-30, 71-240-08-23.

Özbekiston Respublikasi Ta'lim va ilm-fan vazirligi Toşkent töqimaçilik va yengil sanoat instituti vakant (böş) professor-öqituvçilar lavozimlariga tanlov e'lon qiladi

1.	Tikuv va çarm buyumlari texnologiyasi	katta öqituvçi
		assistent
2.	Moda va dizayn	dotsent
		katta öqituvçi
		assistent
3.	Aniq va tabiiy fanlar	katta öqituvçi
4.	Ipak yigiriş texnologiyalari va materialşunoslik	dotsent
		assistent
5.	Kimyo va matbaa muhandisligi	dotsent
6.	Iqtisodiyot va menejment	assistent
7.	Buxgalteriya hisobi va marketing	katta öqituvçi
		assistent
8.	Özbek va xorijiy tillar	katta öqituvçi
		assistent

Tanlovda iştirok etişni xohlovçilar rektor nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga oliş böyiça şaxsiy varaqa, diplomlar va attestatlar nusxalari, ilmiy işlar va ixtirolar röyxati, malaka oşirganlik töğrisida hujjatlar nusxalarini topşiradi.

Arizalar e'lon çiqqan kundan boşlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Eslatma: mazkur institutda işlovçi şaxslar ötgan muddat böyiça kafedrada hisobot beradilar, tanlovda iştirok etuvçilar sinov darslari ötkazadi.

Manzil: Toşkent şahri, Yakkasaroy tumani, Şohjahon köçasi, 5-uy, 1-bino, 208-xona.
Telefon: 371- 253-17-78.

Ta'lim va ilm-fan vazirligi tomonidan Madaniyat vazirligi, Yoşlar işlari agentligi hamda Özbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda «Talabalar teatr studiyalari» körik-festivalining 2027-yilgi mavsumiga start berildi.

Xalq sozi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengaşi
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengaşi

Boş muharrir Ötkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan röyxatga olingan. Naşr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qoğoz biçimi A-2. Bahosi kelişilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab oliş uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qölyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilişi uçun obunani rasmiylaştirgan taşkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli çop etilişiga "Şarq" naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toşkent şahri,
Islom Karimov köçasi, 55-uy.
Navbatçi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Ş. Maşrabboyev.

"Şarq" naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon köçasi, 41. ÖzA yakuni – 00.15 Topşirildi – 01.15 1 2 3 4 5 6